



ISSN 2181-9556

Doi Journal 10.26739/2181-9556

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

2-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-2



ТОШКЕНТ-2024

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№SI-2 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-SI-2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабинова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решает задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Толипов Файзулла Саидович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Xolbekov Abdug‘ani, Rasulov Hakim HUQUQIY MADANIYAT VA SIYOSIY MADANIYAT O‘ZARO ALOQADORLIGINING SOTSIOLOGIK TALQINI.....	9
2. Сеитов Азамат Пулатович ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОЦИОЛОГИЧЕСКИХ ДАННЫХ В ПОЛИТИЧЕСКОЙ СФЕРЕ УЗБЕКИСТАНА.....	18
3. Якубов Ильдар Харрасович, Парманов Фарход Ярашевич КОНЦЕПЦИИ ВЛИЯНИЯ ИНТЕРНЕТ-ПРОСТРАНСТВА НА ОБЩЕСТВЕННО- ПОЛИТИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ.....	27
4. Убайдуллаева Раиса ПРАВО, КАК ПРОФИЛАКТИКА ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ.....	35
5. Abduraxmonova Manzura IJTIMOIY NIHOYANI RIVOJLANISHIDA IJTIMOIY ISH KASBIY FAOLIYATINING NAZARIY KONSEPTUAL JIHATLARI.....	42
6. Madaminov Baxodir JISMONIY MADANIYAT SHAXS IJTIMOIYLASHUVINING ASOSIY OMILI SIFATIDA...51	
7. Yusupov Rahimjon SOTSILOGIYANI O‘QITISHDA AHOLINI RO‘YXATGA Olish TADBIRLARIDAN FOYDALANISH.....	59
8. Узакова Зарина ФЕНОМЕНОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТА «СОЦИАЛЬНЫЙ КАПИТАЛ» И РОЛЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНОГО КАПИТАЛА ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ.....	68
9. Burxanov Xusniddin RAQAMLI JAMIYATDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASH VA MILLIY SAYTLARNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI.....	75
10. Hojiyev Zavqiddin TASHKILOTLARDA XODIMLAR FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH BO‘YICHA ILMIY-METODOLOGIK YONDASHUVLARNING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	83
11. Mahammadjanov G‘olibjon FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLAR VA IJTIMOIY OHANG TRANSFORMATSII: UZARO BOGLIQLIK, ZARURAT OMILLARI (SINERGETIK ENDASHUV).....	93
12. Gaibnazarov Baxodir DAVLAT VA JAMIYAT MUNOSABATLARIDA SOTSIAL BOSHQARUVNING ZARURIYATI OMILLARI (SOTSIOLOGIK YONDASHUV).....	100
13. Mamatqulova Fotimaxon O‘ZBEKISTONDA PENSIYA VA NAFAQALARNI RIVOJLANISH BOSQICHLAR.....	107

14. Komilova Xurshida XOTIN-QIZLARNI ILM-FAN TARAQQIYOTIDAGI FAOLIYATINING IJTIMOYIY ASPEKTLARI - XALQARO TAJRIBA.....	114
15. Mannanov Erkin SIYOSIY MADANIYAT: ZARURIYATI VA FUNKSIYALARI.....	123
16. Ubaydullayev Xurshidjon MIGRATSIYA VA TA'LIM MIGRATSIYASINI SOTSIOLOGIK JIHATDAN TAHLIL QILISH.....	130
17. Akramov Davronbek XAVF GURUHIDAGI OILALAR VA ULARNING BOLALARIGA IJTIMOYIY XIZMATLAR KO'RSATISHDA KEYS MENEJMENT USULINING SAMARADORLIGI.....	139
18. Imomova Nozimaxon MEHNAT MIGRATSIYASINING XUQUQIY ME'YORIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	148
19. Ахмедова Раъно АНАЛИЗ НЕКОТОРЫХ ИНДИКАТОРОВ БЛАГОСОСТОЯНИЯ.....	157
20. Латипова Нодира, Абдугафурова Чарос СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ КОМПОНЕНТЫ СОЗДАНИЯ ДОСТУПНОЙ СРЕДЫ ДЛЯ ЛЮДЕЙ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ В ВУЗЕ.....	167

ПРЕДИСЛОВИЕ К НОМЕРУ

Узбекистан, как страна, поставившая целью построение демократического государства, на системной основе проводит выборы различного уровня, которые базируются на нормативно-правовой базе, регулярно совершенствуемой в соответствии с международными избирательными стандартами. Все это направлено на обеспечение участия граждан в управлении государством и обществом, реализацию принципа волеизъявления народа как неотъемлемого атрибута демократического правового государства. Социология как теоретическая наука, анализирующая эмпирические показатели развития общества, также вносит свой достойный вклад в дело осмысления и совершенствования практики проведения выборов с учетом национального опыта демократических выборов.

Так, одним из проявлений политической жизни общества является участие в выборных процессах. Фактически этот акт является важнейшей формой проявления воли народа, от которой зависит характер и особенности общественного и государственного строительства. Социология как инструмент позволяет изучать комплекс проблем, связанных с особенностями подготовки и проведения выборов, а также с поведением населения в выборных компаниях, в том числе электоральных ориентаций социальных общностей и отдельных граждан. Наша наука позволяет на основе эмпирики лучше понять факторы, влияющие на участие в выборах и голосовании, мотивы участия или неучастия в них, изучение участия электората, особенности восприятия ими предвыборных мероприятий, партий и лиц кандидатов, оценка эффективности деятельности СМИ и уровней их влияния на позиции выборов, прогнозирования результатов выборов и т. д.

Это тем более важно, что 27 октября 2024 года в Узбекистане пройдет очередные парламентские выборы. Теперь они пройдут на основе внесенных изменений и дополнений в Избирательный кодекс страны, которые включают порядок проведения выборов в Законодательную палату на основе мажоритарно-пропорциональной (смешанной) системы. В этой системе избирательные округа теперь делятся на одномандатные и единый избирательный округ. 75 депутатов Законодательной палаты будут избраны от одномандатных округов по мажоритарной системе (голосование за кандидата), остальные 75 - по пропорциональной, то есть на основе голосов, отданных политическим партиям (по партийным спискам).

Все это и послужило важным мотивом выпуска данного специального выпуска нашего научного журнала. Открывает данный номер моя статья «Использование социологических данных в политической сфере Узбекистана», посвященной проведению социологических исследований и использования их данных в реализации предвыборных технологиях. Так, утверждается, что в условиях низкой политической активности в Узбекистане представляется важным использовать наработки политической социологии в сфере разработки и реализации стратегий в сфере политического управления в части работы с информационными и коммуникационными потоками. Через комплексное использование ПР-средств поддерживается репутация кандидата, формируется паблисити, создается общий план воздействия на сознание человека.

Интерес представляет и статья профессора Национального университета Узбекистана (далее НУУз), д.соц.н. А.Холбекова и заведующего кафедрой Термезского государственного педагогического института, к.п.н., профессора Х.Расулова на тему «Социологическая интерпретация взаимосвязи правовой и политической культуры». В статье рассматривается интерес граждан к процессам, связанным с политической жизнью общества, восприятием и обеспечением своих прав и свобод, оценка населением не только уровня правовой и политической культуры общества, но также анализируется система управления, политическая культура действующих в ней ответственных руководителей, тенденции их лидерских качеств.

В журнале опубликована статья доцента Университета мировой экономики и дипломатии (УМЭД), к.п.н. И.Якубова и доцента Академии государственного управления

(АГУ), д.соц.н. Ф.Парманова на тему «Концепции влияния интернет-пространства на общественно-политические процессы». В статье проанализированы некоторые теоретические аспекты и различные подходы исследователей к осмыслению данного феномена, выявлены некоторые их особенности. В статье приводятся данные прикладных исследований, указывающие на растущую роль интернет-коммуникаций в формировании общественного мнения, взглядов общества на те или иные общественные проблемы.

Статья профессора НУУз, д.соц.н. Р.Убайдуллаевой «Право, как профилактика девиантного поведения» посвящена современным тенденциям в развитии права как основного регулятора общественной жизни. По мнению автора, в развитии права можно проследить тенденции гуманизации, дифференциации и прагматизации, позволяющие вести учет многообразия форм, уровней, способов практической деятельности и тех трудностей, которые могут привести к правонарушениям.

Ряд авторов представляют собой ученых, непосредственно задействованных в процессах общественного и государственного управления в нашей стране. Например, руководитель отдела социально-правового медиацентра Олий Мажлис Республики Узбекистан, к.п.н. (PhD) Г.Махаммаджанова «Институты гражданского общества и трансформация социального сознания: взаимозависимость, факторы необходимости (синергетический подход)». В статье рассмотрена деятельность, изменения, обновление, преобразование социальных институтов в обществе. Также Б.Гаибназаров, исследователь АГУ в статье «Факторы необходимости социального управления в отношениях государства и общества (социологический подход)», проанализировал новые тенденции, характерные для управления в современном обществе и государстве, в частности, социального управления с социологической точки зрения.

Влияние социальных сетей на выборы рассмотрел к.с.н., соискатель НУУз Х.Бурханов в статье «Проблемы обеспечения информационной безопасности в цифровом обществе и развития национальных сайтов». В данной статье изучен вопрос расширения возможностей информационной системы, развития национальных сайтов Узбекистана в Интернете, современная ситуация и имеющиеся проблемы.

Говоря о выборах можно с большой вероятностью можно говорить о том, что основной тематикой дебатов между политическими партиями страны будет вопрос эффективной реализации идеи «Узбекистан - социальное государство». В этой связи интерес представляет ряд статей, затрагивающих социальный блок развития общества. В частности, заместитель директора Филиала НИЯУ МИФИ в г.Ташкенте, к.с.н. З.Узакова в статье «Феноменологический анализ концепта «социальный капитал» и роль психологических факторов в формировании социального капитала лиц с инвалидностью» дала теоретический анализ преимущественно с позиции междисциплинарного подхода. Результаты исследований автора свидетельствуют о том, что несмотря на разработанные рекомендации по повышению социального капитала людей с инвалидностью, такие как создание доступной среды, инклюзивная и трудовая интеграция, тщательный подбор социального работника, эта проблема все еще остается актуальной и требует более тщательного изучения.

В статье профессора Ферганского государственного университета (ФГУ), д.с.н. (DSc) М.Абдурахмоновой даны теоретико-концептуальные аспекты профессиональной деятельности социальной работы по развитию социальной защиты. В статье разъяснено значение профессионального этического кодекса профессии социального работника при оказании социальных услуг, сделаны выводы о значении социальной работы в развитии профессиональной деятельности в новой системе социальной защиты Узбекистана.

В номере еще одна статья из Ферганы, а именно, доцента ФГУ, к.с.н. (PhD) Н.Имомовой «Совершенствование правовой и нормальной базы в сфере трудовой миграции», затрагивающей такую актуальную для общественного мнения в период выборов тему как государственную политику по регулированию процессов трудовой миграции. В статье представлены выводы, полученные в результате сравнительного анализа социологических исследований и официальных данных, проведенного автором.

В завершение отметим, что статьи из данного специального номера нашего журнала найдут своего читателя и будут способствовать лучшему пониманию развития современной социологической мысли в нашей стране. Напомним, что наш журнал открыт для любого автора, который стремится донести свои мысли об общественных процессах, которые представляют актуальный характер.


**С уважением,
Главный редактор Сеитов Азамат**

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Madaminov Baxodir,
Namangan davlat universiteti
Jismoniy madaniyat kafedrası dotsenti, p.f.n.

JISMONIY MADANIYAT SHAXS IJTIMOYILASHUVINING ASOSIY OMILI SIFATIDA

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.13338512>

ANNOTATSIYA

Maqolada shaxsning ijtimoiylashuv jarayonida jismoniy madaniyatning tutgan o'rnı va va ushbu jarayonda mavjud bo'lgan muammolar haqida fikr bildirilgan. Yoshlarda jismoniy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish dolzarbligi ta'kidlangan. O'zbekistonda sportga e'tibor ajdodlarimizdan me'ros ekanligi ta'kidlangan holda, sport hodisasi kam o'rganilgan sohalaridan biri bo'lib, ayniqsa, o'quvchi-yoshlarining jismoniy madaniyatini shakllantirish masalasi yaxlit tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmaganligi haqida xulosa beriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish lozimligi borasida muallif o'z fikr va mulohazalarini bayon etgan holda, yosh avlodni xalqimizning ko'p asrlik an'analarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash ishidagi sportning rolini oshirish kabi islohotlar natijasida jismoniy madaniyat orqali vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga hurmat bilan qaraydigan barkamol avlodni voyaga etkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish tizimi yuzaga kelganligi va bu jarayon shaxsning ijtimoiylashuvida asosiy omil ekanligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: jismoniy madaniyat, psixologik, sotsiologik, antropologik, insonlararo munosabatlar, madaniy va estetik jihatlar, ijtimoiy faollik, izlanishlar, zamonaviy, me'yoriy-huquqiy.

Мадаминов Баходир,
Доцент кафедры физической культуры
Наманганского государственного университета, к.п.н.

ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА КАК ГЛАВНЫЙ ФАКТОР СОЦИАЛИЗАЦИИ ЛИЧНОСТИ

АННОТАЦИЯ

В статье высказывается мнение о роли физической культуры в процессе социализации личности и проблемах, существующих в этом процессе. Подчеркнута актуальность формирования и развития физической культуры среди молодежи. Подчеркивая, что внимание к спорту в Узбекистане унаследовано от наших предков, делается вывод, что феномен спорта является одним из наименее изученных направлений, тем более не изучен вопрос формирования физической культуры студенческой молодежи как комплексного объекта исследования. Автор выразил свои мысли и мнения о необходимости реализации задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан и других правовых документах касательно повышения роли спорта в воспитании молодого поколения в духе уважения к многовековым традициям нашего народа, подчеркнул, что в результате реформ сложилась

система воспитания зрелого поколения, уважающего патриотизм, национальные традиции и ценности посредством физической культуры, защищающего его права и интересы, и что этот процесс является основным фактором социализации личности.

Ключевые слова: физическая культура, психологические, социологические, антропологические, межличностные отношения, культурно-эстетические аспекты, социальная активность, исследования, современные, нормативно-правовые.

Madaminov Bakhodir,
Doctor of Philosophy (PhD) Associate Professor
of the Department of Physical Culture
of Namangan State University

PHYSICAL CULTURE AS THE MAIN FACTOR OF PERSONALITY SOCIALIZATION

ABSTRACT

The article expresses an opinion on the role of physical culture in the process of socialization of the individual and the problems existing in this process. The relevance of the formation and development of physical culture among young people is emphasized. Emphasizing that attention to sports in Uzbekistan is inherited from our ancestors, it is concluded that the phenomenon of sports is one of the least studied areas, especially the issue of the formation of physical culture of student youth as a complex object of research has not been studied. The author expressed his thoughts and opinions on the need to implement the tasks defined in the Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan and other legal documents regarding the enhancement of the role of sports in educating the younger generation in the spirit of respect for the centuries-old traditions of our people, emphasized that as a result of the reforms, a system of educating a mature generation that respects patriotism, national traditions and values through physical culture, protecting its rights and interests has been formed, and that this process is the main factor in the socialization of the individual.

Key words: physical culture, psychological, sociological, anthropological, interpersonal relations, cultural and aesthetic aspects, social activity, research, modern, regulatory and legal.

KIRISH

Jahon miqyosida “jismoniy madaniyat va sport” mavzusi orqali jamiyat a’zolarining bo’sh vaqti, turmush tarzi, sog’lik va salomatligini namoyon etishning bir belgisi sifatida qaralmoqda. Globallashgan dunyo manzarasida “milliy”, “diniy”, “irqiy”, “gender” tengsizliklar mavjudligi ijtimoiy mazmun kasb etib, u zamonaviy axborot jamiyatidagi jarayonlarning mohiyati, tendensiyalari va sabablarini jismoniy madaniyat va sport orqali ijobiy tomonga mustahkamlash, kishilik jamiyatining ijtimoiy-ruhiy kayfiyatiga bo’lgan salbiy ta’sirlarni ushbu jarayon orqali bartaraf etishga bo’lgan ob’ektiv zarurat tufayli yuzaga kelmoqda.

Dunyoda jismoniy madaniyat masalalari o’rganilar ekan, uning ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o’rni psixologik, sotsiologik, antropologik, falsafiy va madaniy mazmunda ilmiy tadqiqotlarning mavzusi bo’lib qolmoqda. Sotsiologik adabiyotlarda “jismoniy madaniyat – bu jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida uning umumiy bir qismi bo’lgan madaniy jarayonlarida insonning maqsadli jismoniy kamol topishidagi ratsional jarayondir” [2].

METODOLOGIYA

Globallashuv tufayli dunyoda shakllanayotgan zamonaviy qadriyatlar jismoniy madaniyat va sport orqali bugungi davr va insoniyat orttirgan hayotiy tajriba o’rtasidagi uzviylikka asoslangan insonlararo munosabatlar dinamikasini o’rganish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Mustaqillik yillarida O’zbekistonda “sog’lom turmush tarzi”, “sog’lom avlod”, “sog’lom millat”, “jismoniy va ijtimoiy-ruhiy sport” tushunchalariga alohida ilmiy aniqlik kiritildi. Ushbu jihatlar O’zbekistonda yuksak ma’naviyatli, madaniy va estetik jihatlarni o’zida to’liq jamlagan jismonan sog’lom, har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalash omillarini shakllantirdi

ASOSIY QISM

Yosh avlodni xalqimizning ko'p asrlik an'analarini hurmat qilish ruhida tarbiyalash ishidagi rolini oshirish kabi islohotlar natijasida jismoniy madaniyat va sport orqali vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga hurmat bilan qaraydigan barkamol avlodni voyaga etkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish tizimi yuzaga keldi. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida «jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish» [1] kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu borada jismoniy tarbiya va sport sohasida aholi keng qatlamini sport bilan shug'ullanishga va sog'lom turmush tarzini yuritishga jalb etish, jismonan sog'lom avlodni tarbiyalash, sport industriyasi va infratuzilmasini rivojlantirish, mamlakatimizning xalqaro sport maydonlaridagi yutuqlarini targ'ib qilish va uning keng e'tirof etilishiga qaratilgan yagona davlat siyosati jarayonlarining sotsial prognozini amalga oshirish dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son, «Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2017-yil 15-fevraldagi PF-4956-son Farmoni, «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son, «Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2018-yil 5-martdagi PF-5368-son, 2018-yil 27-iyundagi «Yoshlar – kelajagimiz» Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmonlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Bugungi kunda ayniqsa sport sohasida katta islohotlar amalga oshayotgani guvohi bo'lyapmiz. Maktab va litseylar, kolledj va institutlar qayta qurilib, kapital ta'mirlash ishlari amalga oshirilmoqda. Zamonaviy o'quv binolari, shinam sinflar, o'quv anjomlari bilan ta'minlanganlik kabi yangiliklar moddiy resurslar sirasiga kirsada, sport jarayonini tashkil etishda qator vazifalar turibdi. Jumladan, dars va mashg'ulotlarni interfaol sport texnologiyalarida tashkil etish, o'quvchi shaxsida komillikka intilish va uning ruhiy holatini, mustaqil xulqini shakllantirishni etakchi o'ringa qo'yish - zamonaviy pedagogik jarayonning markaziy nuqtasiga aylanishi lozim. Buning uchun birinchi o'rinda, ilg'or sport texnologiyalari bilan qurollangan pedagoglar, boladagi shaxs erkinligi va mustaqil tanlovini eng oliy qadriyat sifatida tan olgan murabbiylar bo'lishi juda muhim.

Ko'p jihatdan sport sohasini ta'minlovchi fanlarning oldida turgan vazifalardan biri ham aynan shunday sport jarayonini ta'minlovchi o'quv dasturlari va materiallari bilan ta'minlashdan iborat bo'lishi lozim. Bugungi kundagi ko'pgina sohalarni tahlil qiladigan bo'lsak, shaxsning erkin tanlovini ta'minlash yo'lida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida to'xtalib o'tish mumkin. Kasb tanlash va ayniqsa, xorijda o'qish imkoniyatiga ega bo'lish, shaxsning o'z hayotini mustaqil qurishdagi asosiy omillardan biridir. Hatto yoshlarning o'z oldida turgan harbiy burchini o'tashda muqobil xizmat turini tanlash imkoniyati, erkin tanlovni amalga oshirishning eng yuksak darajasi sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Turli sohalarni tahlil qilarkanmiz, erkin va komil shaxsni tarbiyalashda oila institutining etakchi o'ringa chiqishi alohida ta'kidlab o'tilishi lozim. Afsuski, bugungi kunda yoshlar ma'naviyati bilan bog'liq asosiy muammolar oilada ro'y berayotgan muammoli vaziyatlar bilan bog'liqligi kuzatilmoqda. Odamlar orasida alomatlikka zarar etkazuvchi eng jiddiy sabab, hamon tamaki chekish bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Sog'liqni saqlash Vazirligi ma'lumotlariga ko'ra 18 yoshdan katta bo'lgan erkaklarning 60% va ayollarning 12% tamaki chekadilar. Bu ko'rsatkich voyaga etmaganlar orasida (14-18 yoshlar) 16% ni tashkil etadi. Eng ko'p chekuvchilar jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchilar o'rtasida bo'lib. U 70% ni, aqliy ish vakillari orasida esa 51% ni tashkil etadi (8 rasmga qaralsin) [3].

Shaxs tabiiy qobiliyatlarni rivojlanishi bilangina rivojlanib qolmaydi, aksincha, o'zi kabilar bilan muloqot jarayonida shakllanib boradi. Ushbu nazariya mashhur amerikalik psixolog va sotsiolog Charlz Xorton Kuli (1864-1929) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, shaxsning o'z «MEN»ni boshqalardan farqini

anglab borish jarayonini tadqiq etadi. Ko'plab tajribalar natijasida u shaxs rivoji uni o'rab turgan muhit ta'sirida sodir bo'lishini anqlaydi [4].

Oilaviy munosabatlardagi tajangliklar, ayrim oilalarda amal qiluvchi qadriyatlarning iste'molchilik, moddiy boylik orttirish va soxta obro'ga ega bo'lishga yo'nalganligi ulg'ayayotgan bolada shunga mos qadriyatlarning ustunlik qilishiga, uning rivojlanish istiqbolini moddiy mulkka ega bo'lish darajasida qolib ketishiga, har qanday hayotiy tanlovni faqat moddiy mezonlar asosida amalga oshirishiga sabab bo'lmoqda. Albatta, ma'naviy yetuk, mustaqil e'tiqod va psixologik to'kin insonni shakllantirish yo'lida oila boshi, ota-onalar bilan ishlash muhim vazifaga aylanadi. Ushbu maqsad yo'lida oila institutiga aloqador bo'lgan barcha fan va sohalar mas'uldirlar. Bunday holat esa ijtimoiy fanlar oldida yangi vazifalar qo'yadi va barcha sohalarning integratsiyalashuvini talab qiladi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarda shaxs xususiyatlarini o'rganuvchi nazariyalar quyidagicha turkumlanishi mumkin: psixodinamik, sotsiodinamik, interaksionistik, psixodinamik nazariyaga ko'ra, shaxs xulq-atvori uning ichki, subektiv xususiyatlaridan kelib chiqib ta'riflanadi. Sotsiodinamik nazariyada esa, shaxs hulqi shakllanishi tashqi vaziyatlar bilan bog'lanadi va ichki xususiyatlar ikklamchi hisoblandi. Interaksionallikda inson xulqini boshqarishda ichki va tashqi omillar o'zaro ta'sirlanishi tamoyillari birlamchi, deb belgilanadi.

Shuningdek, oraliq nazariya ham bo'lib, unga ko'ra, biologik xususiyatlar va sotsial tajriba shaxs shakllanishining bosh omili sifatida ko'rsatiladi. Ammo, ilmiy adabiyotlarda shaxs shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi bosh omillar sifatida:

- biologik irsiylik,
- jismoniy muhit,
- madaniyat,
- jamoaviy va unikal individual tajriba ko'rsatiladi.

O'tgan asrda sotsiologiya va psixologiyada qayd etilgan omillarning o'zaro ta'siri natijasida unikal, takrorlanmas shaxsiyat shakllanishini izohlovchi qator g'oyalar ilgari surildi. Bular shaxs rivojlanishi nazariyasi, psixoanaliz, ong taraqqiyoti nazariyasi, ma'naviy o'sish g'oyasi va boshqalardir.

Shaxs rivojlanib borgani sari unga sotsial ko'zgu sifatida xizmat qiluvchi guruhga mansublik jiddiy ta'sir o'tkazadi. Boshqacha qilib aytganda, inson ba'zi fikrlarga diqqat bilan e'tibor qilsa boshqalarini e'tiborsiz qoldiradi. CH.Kuli nazariyasining zaif jihati shaxsning individual faolligi yetarlicha baholanmaganligi hamda shaxs rivoji birgina jamoatchilik fikriga bog'liq, deb talqin etilishidadir.

Ikkinchi g'oya amerikalik psixolog Djordj Gerbert Mid (1863-1931) ga tegishli bo'lib, unga ko'ra, shaxs rivoji boshqalar rolini qabul qilinishi natijasida shakllanuvichi «Men» va «Meni» tushunchalari bilan bog'liq holda sodir bo'ladi [6]. Mid fikricha, shaxs shakllanishi uch bosqichda kechadi. Bular:

- imitatsiya – bunda bolalar o'zlari tushunmagan holda kattalar xulqini nusxalaydi.
- o'yin bosqichi – unga ko'ra bolalar xulq-atvorni ma'lum rollarni bajarilishi, deb biladilar.

Bir roldan ikkinchisiga o'tish esa bolalarda o'z o'y-hayollari va xulqiga jamiyatning barcha a'zolari kabi ma'no-mazmun berish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu esa o'z «Men»ini anglashdagi navbatdagi qadam hisoblanadi. Midning ta'kidlashicha, insoniy «Men» ikki qismdan iborat: «Men-o'zim» va «Men-meni». Men-o'zim – bu shaxsning boshqa insonlar va jamiyatning ta'siriga javob ta'sirlanishidir. Men-meni esa insonni o'zligini boshqa muhim insonlar nuqtai nazaridan kelib chiqib anglashidir. «Men-o'zim» «Men-meni» va boshqalar munosabatiga javob ta'sirlanadi.

Jamoaviy o'yin bosqichi – Mid fikricha, bu bosqichda shaxs o'zi tegishli bo'lgan jamoaga xoslik tuyg'usini va jamoaviy kutishlarni anglaydi. Unga ko'ra, har bir inson muayyan ijtimoiy tizimda bir necha sotsial mavqega ega bo'lishi mumkin. Har bir egallangan o'rin sotsial mavqe, deb ataladi. Bu o'rinlardan biri shaxsning asosiy sotsial mavqesini belgilaydi. Shaxs sotsial mavqesi uning tashqi xulqi, tashqi qiyofasi, yurish-turishi va hatto muomalasida ham o'z aksini topadi.

Shaxsning sotsial roli nazariyasida belgilagan va erishilgan sotsial mavqelar farqlanadi. Belgilangan mavqe – bu shaxs xizmati va xatti-harakatidan qat'iy nazar jamiyat tomonidan belgilab qo'yiladi. Shaxsning etnik kelib chiqishi, tug'ilgan joyi, oilasi, jinsi shular jumlasidandir. Erishilgan

mavqelar – shaxsning o‘z xatti-harakati, qobiliyati bilan erishgan mavqelar to‘plamidan iborat. Sotsiallik – shaxsning muayyan ijtimoiy tizimda egallagan konkret o‘rnini ifodalaydi. Sotsial rol – shaxsning ijtimoiy tizimda egallagan mavqei bilan bajariladigan faoliyat majmuidan iborat. Shaxs faoliyati deyilganda, uning ichki va tashqi tendensiyalarining ijtimoiy hayotda namoyon bo‘lishining asosiy xususiyatlari tushuniladi. Sotsial faollik inson shaxs sifatidagi darajasining asosiy ifodasi bo‘lib, uning yuksak qadriyatli ehtiyojlarini qoplanishlari va sifat ko‘rsatkichlaridir. Bu borada M.Veber o‘zgacha nuqtai nazarni ilgari suradi. U individ xulq-atvori jamiyat taraqqiyotida katta rol o‘ynaydi, deb hisoblaydi. Veber subyekt rolida alohida individlarni ko‘radi [8].

Shuningdek, davlat kabi tuzilmalarni jamiyatga ta‘sirini rad etmaydi. Ammo, real xatti-harakatga insongina qodir, deb hisoblaydi. Boshqa tuzilmalar, ayniqsa, jamoa xulqi ramziy-mavhum xususiyatga ega, deb biladi.

Avstriyalik psixolog Z.Freyd (1856-1940) nomi bilan bog‘liq psixoanalizga ko‘ra shaxs jamiyat bilan doimiy ziddiyat holatida bo‘ladi. Chunki, insonning ichki qo‘zg‘atuvchilari o‘rnatilgan madaniy me‘yorlarga mos kelmaydi. Ijtimoiylashuv jarayoni esa bu ichki qo‘zg‘atuvchilarni jilovlash jarayonidir [10].

Psixoanaliz zamonaviy sotsiologiya va psixologiyaning taraqqiyotida muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Psixoanalizga ko‘ra, har qanday ruhiy hodisa uch jihatga ega, ya‘ni:

- dinamik – turli ruhiy kuchlarning o‘zaro ta‘siri va to‘qnashuvi natijasi;
- energetik – to‘qnashuv jarayonida ichki kuch-quvvatni ozodlikka chiqarilishi va uning keyingi mavjudligi;
- tuzilmaviy – shaxs ruhiy tuzilmasi bilan bog‘liq holda yoritilishi shart.

«Men» shaxs ruhiy strukturasi sifatida istak va imkoniyatni moslashtirishga va insonni ziddiyatdan chiqishiga ko‘maklashadi. «U» esa turli ruhiy kuchlar ta‘sirida yuzaga chiqqan quvvat, ruhiy kuch makoni, jo‘shqin hissiyotlar va ishtiyoqlar yig‘indisini tashkil etadi. Bu arxaik, an‘anaviy shaxsga xos bo‘lmagan butunlay ongsiz, ruhiyatning tashqi dunyo bilan aloqasi bo‘lmagan sof subektiv qismidir. «U» ehtiyojlarning darhol qondirilishga intiladi va bunda «MEN» bilan to‘qnash keladi. «MEN» o‘z o‘rnida «U» va tashqi muhit, ishtiyoq va qoniqish o‘rtasida vositachi bo‘ladi. «U» butkul ongsizlik bo‘lsa, «MEN» reallik tamoyillariga bo‘ysundirilgan va «U»ning irratsional impulsini jilovlab turadi. Uchinchi ruhiy tuzilma «Mutloq-MEN» bo‘lib, u onga ijtimoiy me‘yor, tarbiyaviy taqiq va rag‘bat berish orqali shakllanadi. Individning ahloqiy me‘yorlari manbasi sifatida ishtirok etadi. «MEN» ongsiz ruhiy faollikning o‘ziga xos shaklidagi ruhiy himoyani ishlab chiqadi. Bu himoya vaqtinchalik bo‘lsa-da ziddiyatni yumshatish, tang holatdan chiqish, aniq hayotiy vaziyatlarda esa voqea va hodisalar mohiyatini o‘zgartirishga asoslanib, insonning o‘zi to‘g‘risidagi ideal tasavvurga zarar etkazilmaydi. Bu himoya shakllari quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

- rad etish – ko‘ngilsiz voqelikka «ko‘z yumish», uning mavjudligini rad etishga yoki «Mutloq-Men»ga tahdid solayotgan xatarni susaytirishga intilish hisoblanadi. Rad etishning ijobiy jihatlaridan tashqari salbiy xususiyatlari ham bo‘lib, unda inson voqelikdan juda uzoqlashib ketishi mumkin;

- bosim – agarda rad etish tashqi turtkilarga yo‘naltirilgan bo‘lsa, bosim «Mutloq-Men» tomonidan kelayotgan ichki impuls va tahdidlarni zararsizlantiradi. Bunda ko‘ngilsiz kechinmalar ongsizlik tomon siqib chiqariladi va real xulq-atvorga ta‘sir ko‘rsatmaydi. Asosan shaxs tomonidan qabul qilingan ahloqiy qadriyat va me‘yorlarga zid hayollar, istaklar ichki kuch yordamida bostiriladi;

- proeksiya – inson o‘zida mavjudligini tan olmaydigan ko‘ngilsiz sifat va xususiyatlarni boshqalarga xos deb bilish;

- ratsionallik – xavotir tug‘diruvchi va aloqiy me‘yorlarga zid keluvchi har qanday xatti-harakatni ongli oqlash. Bunda individ biror yumushni bajarishni xohlamaslik bilan izohlashi nazarda tutiladi;

- intellektuallashtirish – hissiy tahdidli vaziyatlardan mavhum va intellektual yondashuv ko‘magida chiqib ketishga intilishdir;

- aks ta‘sirni shakllantirish - xatti-harakat motivlarini o‘zidan va boshqalardan yashirishga intilish;

- o‘rnini to‘ldirish – bilvosita narsalar bilan qisman qoniqish.

Freyd psixoanalizi inson ruhiyatidagi «libido» (jinsiy mayl) ni izohlar ekan, unga ko‘ra, inson xulq-avori va xatti-harakatining asosida ongsiz libido yotadi. Bu ro‘yobga chiqarilmagan istaklarning ramzi sifatida izohlanadi. Freyd haxs rivojida bolalik, avvalo, oilaviy tajribaga alohida e‘tibor qaratadi. U jazavani davolash usuli – katarsisni ishlab chiqadi. Uning mohiyatiga ko‘ra, jazava insonning ro‘yobga chiqarilmagan va doimiy bosim ostida bo‘lgan istaklarining oqibati sifatida namoyon bo‘ladi. Shaxs nazariyalarida gumanistik yo‘nalishning rivojlanishi amerikalik psixolog Abraham Maslou (1908-1970) nomi bilan bog‘liq. Gumanistik g‘oyaning diqqat markazida – shaxsning shakllanishi, o‘zini imkon qadar ijodiy ro‘yobga chiqarish masalasi yotadi. Gumanistik nazariya psixoanaliz va bihevizizmga zid ravishda rivojlandi. Bunda individuallik integrativ butunlik sifatida o‘rganiladi va insonni tushinishda hayvonlarda tajriba o‘tkazilish yaroqsizligi ta’kidlanadi. Mumtoz psixoanalizdan farqli ravishda gumanistik nazariya aslida insonning sahovatli va neytralligini, tajovuz va zo‘ravonlik muhit ta’sirida yuzaga kelishini asoslab berdi [11]. Maslou bo‘yicha, nisbatan universallik insoniy sifatlarga xos kreativ (ijodkor) lik bo‘lib, u tug‘ma bo‘ladi va atrof-muhit ta’sirida rivojlanadi.

Maslou konsepsiyasining markazida – insoniy ehtiyojlar to‘g‘risidagi tasavvur yotib, ular quyidagi darajalardan iboratdir:

- fiziologik ehtiyojlar;
- xavfsizlikka bo‘lgan ehtiyoj;
- mehr va mansublikka bo‘lgan ehtiyoj;
- boshqalarni va o‘zini hurmat qilish ehtiyoji;
- o‘zini ro‘yobga chiqarish ehtiyoji.

Dastlabki ehtiyojlar keyingilarini ro‘yobga chiqarilguniga qadar qondirilish shart. Busiz inson nisbatan yuqori darajali ehtiyojlar mavjudligini his etmasligi mumkin. O‘zini ro‘yobga chiqarish ehtiyojini Maslou ehtiyojlar «cho‘qqisi» sifatida tushunadi. Bu o‘z ustida ishlash, mukammallikka intilish, ijod, mehnat va muloqot kabilarda namoyon bo‘ladi. Bunga bor-yo‘g‘i 1% dan kam insonlar o‘z hayot faoliyatida erishishi mumkin. Ko‘pchilik esa o‘zidagi mavjud imkoniyat va qobiliyatni anglab etmaydi. O‘zini ro‘yobga chiqarish ehtiyoj darajasiga ko‘tarilgan inson esa komil shaxs darajasiga erishib, hasad, yovuzlik, didsizlik, baxillik kabi illatlar, tushkun kayfiyat, xudbinlik va shafqatsizlikdan holi bo‘ladi. O‘zini ro‘yobga chiqarayotgan insonning o‘z shaxsiyatiga munosabati yuqori bo‘lib, ular boshqalarga ochiq munosabat va mustaqilligi, oddiy va demokratik, ilhomlanishga moyil insonlar sanaladi. Bunday talqinga mos keluvchi inson oliy qadriyat hisoblanadi va shaxs sifatida kamol topib boradi [12].

Gumanistik yo‘nalishning yana bir vakili Karl Rodjers bo‘lib (1902-1987), uning fikriga ko‘ra, inson yashash va rivojlanishga tug‘ma moyillik sezadi. Inson aslida saxiy va u jamiyat tomonidan nazoratga muhtoj emas. Shafqatsizlik, aksilsotsiallik, omilik – qo‘rquv va ruhiy ojizlikning natijasidir [13].

B.Skinner (1904-1990) bihevizorial yo‘nalishning fundamental asosi bo‘lgan va individ xulq-atvori asosida yotuvchi shartli stimullarni ilmiy asoslab beradi. Shartli stimullar sotsiomadaniy xususiyatga ega bo‘lib; sotsial rag‘bat-jazo, sportdagi o‘zlashtirish, o‘zlashtira olmaslik, hayotda ustunlikni ta‘minlovchi pul, tilyog‘malik-maqtov, e‘tibor, yutuq, boshqalarni buysundirish, bog‘liqlik kabi insonning hulq atvorining turli motivlarni izohlovchi asosiy sotsial faktlar sifatida qabul qilinadi. Bihevizizmga ko‘ra, bola tug‘ilganda hayotga umuman moslashmagan bo‘ladi va ijtimoiylashuv jarayonida undagi hulqning «nisbatan murakkab repurtuari» shakllanib boraveradi [14].

Ushbu nazariyada muhim kategoriyalardan biri hisoblangan ichki va tashqi faollik – «reaksiya (aks ta’sir)» sifatida talqin etilgan. Bunda S – R chizmasi yaratilib, unga ko‘ra s-inson hulq-atvorini shakllantiruvchi stimullar (turki) lar, R-unga nisbatan reaksiya-aks ta’sirdir. Reaksiyaning xususiyatini stimullar belgilab beradi. Bu bihevizizmning mohiyatini tashkil qiluvchi tushunchalar hisoblanadi. Vazifadan kelib chiqib stimullarni o‘zgartirish va kishilar xatti-harakatni boshqarish mumkin. E‘tiborlisi, omadli reaksiya stimullarda muqim o‘rnashib qoladi va qayta ishlab chiqarilaveradi. Bu g‘oya «effekt qonuni», deb nomlangan san’at sohasi va sotsial pedagogikada o‘z aksini topdi. Bunga ko‘ra, san’atkorning erishgan yutuqlari oldingi tajribasi bilan bog‘liq bo‘lib, omadli sahna chiqishi keyingilariga turki beradi. Reaksiyalarning mustahkamlanishi «mashq qonuni»ga bo‘ysundirilgan

bo‘lib, bunga ko‘ra, bir xil stimullarga aks ta‘sirning ko‘plab takrorlanishi natijasida bu reaksiyalar avtomatik ko‘rinishga ega bo‘ladi. Bu nazariya «sinov va hatto» usuliga tayanadi. Zaruriy reaksiyani ishlab chiqish uchun ko‘plab sinovlardan o‘tiladi va oxir-oqibatda ulardan biri kerakli effektga olib keladi. Keyinchalik boshqa biheviorial oqim vakillari tomonidan hulq-atvorning S-R chizmasiga asoslanmasligi to‘g‘risidagi farazlar ilgari suriladi. Yoqimli oqibatlar – hissiy va hulq-atvorli qayta reaksiyalarga turtki bo‘ladi. unga ko‘ra, inson hulq-atvorni tanlamaydi, aksincha, ehtimoliy oqibatlar subektni boshqaradi. Demak, rag‘batlantirish yordamida shaxs kerakli hulq-atvoriga ega bo‘lishi mumkin. Biheviormizmda tarbiyada jazo va taqiqlarning o‘ziga xos talqini taklif etiladi. Jazolar ekanmiz biz mohiyatan bolaga tajovuzkor hulq shaklini namoyon etamiz. Tabiiyki, bola uni o‘zlashtiradi. Chunki, kuzatish natijasida tajovuzkor majburiylik va o‘zini-o‘zi tasdiqlashda qo‘l kelishining guvohi bo‘ladi. Biheviormizmnning kuchli tomoni ruhiyatni hulq-atvor oraqli ob‘ektiv o‘rganishga qaytish bo‘lsa, kuchsiz jihati – ong, iroda, fikr va ruhiyatning sotsial tabiati rolining susaytirilishi bo‘ldi.

XULOSA

Sotsiologiya shaxsni tabiat mahsuli sifatida emas, balki sotsial munosabatlar mahsuli, jamiyat in‘ikosi sifatida o‘rganadi. Shaxs sotsial o‘zaro ta‘sir va munosabatlarning birlamchi omili hisoblanadi. Shaxs sotsiologiyasining asosiy masalasi shaxsning shakllanish jarayoni va uning ehtiyojlarini qondirilishi, sotsial birlikda rivojlanishi va amal qilish, jamiyat bilan shaxs aloqlari, shaxs va guruhlar, shaxsning sotsial fe‘l-atvori va ularni tartibga solish qonuniyatlari bilan chambarchas bog‘langan. Shaxs insoning jismoniy tabiatini emas, balki, uning sotsial sifatini namoyon qiladi. Shaxs ehtiyojlari uning manfaatlarini orqali nomoyon bo‘ladi. Manfaatlar esa maqsadli faoliyatga yo‘llaydi. Kishilarning sotsial munosabatlari ularning xulqlarida, eng avvalo, manfaatlar tizimida namoyon bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida shaxs faoliyatining maqsadi, mazmuni va mohiyatini ifodalaydi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni
2. Журбина А.Д. Социологические аспекты физической культуры и спорта // Научный Вестник МГТУ ГА. Серия: История. Философия. Социология – 2007. № 113. – С. 146.
3. Бюллетень Министерства Здравоохранения РУз. 18 ноября 2004 г.
4. Вебер М. Избранные произведения. – М., 1990.
5. Социология: Учебник /Под ред. проф. Ю.Г.Волкова. Изд. 2-э, испр. и доп. – М.: Гардарики, 2003. – С. 102.
6. Социология: Учебник /Под ред. проф. Ю.Г.Волкова. Изд. 2-э, испр. и доп.– М.: Гардарики, 2003. – С. 102.
7. Дюркгейм Э. Социология. Ее предмет, метод, предназначение / Пер. с фр., составление, послесловие и примечания А.Б.Гофмана. – М.: Канон, 1995. – 352 с.
8. Вебер М. Избранные произведения. – М., 1990.
9. Muminov Z. Sociocultural features of professional mobility in internal migration. <https://www.scholarzest.com> Vol.2.No.7, July 2021 ISSN: 2660-5589.P-120.
10. Мадаминов Б. Ш. Ёшларга оид давлат сиёсатида оммавий спортнинг ўрни ва роли //журнал социальных исследований. – 2021. – Т. 4. – №. 1.
11. Madaminov B. Strategy of development of pedagogical competence in training physical education //Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology. – 2019. – Т. 1. – №. 2. – С. 258-262.
12. Muminov Z. The concept of professional mobility: sociological characteristics and theoretical foundations. DOI10.36074/logos-10.09.2021.40. <https://doi.org/10.36074/logos-10.09.2021>. P-148

-
13. Роджерс К.Р. Взгляд на психотерапию. Становление человека. – М., 1994.
 14. История социологии в Западной Европе и США/Учебник для вузов. Отв.ред. Г.В.Осипов. – М.: Норма-Инфра-М, 2001. – 576 с.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

2-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-2

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000